

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“Tasdiqlayman”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
30-iyun 2025-yil

OLIGOFRENOPEDAGOGIKA
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 - Ta'lim
Ta'lim ma'lumoti:	60110300 – Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)

Fan/modul kodi OliPed13408		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 4	Kreditlar 4	
fan/modul turi Majburiy		Ta’lim turi O‘zbek		Xaftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Oligofrenopedagogika		60	60	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad–talabalarda pedagogik tafakkur madaniyatini shakllantirish, oligofrenopedagog kasbiga, uning faoliyatiga qiziqish,o‘z kasbiga sadoqatli bo‘lish,ilmiy, kasbga oid bilimlar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarni maxsus ta’lim muassasalarida amaliy qo‘llay olishga o‘rgatish, aqli zaif o‘quvchilar bilan korreksion ta’lim-tarbiyaviy ish olib borishning o‘ziga hosligi va o‘quvchilarga pedagogik-psixologik yondoshish yo‘llari, usullarini o‘rgatish, oligofrenopedagogning ota-onalar bilan ish olib borishdagik pedagogik mahoratga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Fanning vazifasi –aqli zaif o‘quvchilarni maxsus ta’lim-tarbiya jarayoni nazariyasi va amaliyoti, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarning xususiyatlari, ularni rivojlantirish, korreksiya vositalarini yaratish, qo‘llash, o‘rganishdan iborat. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Oligofrenopedagogika fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Nottingem universiteti (Angliya)ning Nevrologiya asoslari fanining o‘quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo‘yicha 108-o‘rinni egallagan bo‘lib, o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg‘unligi – Nottingem universitetining maxsus ta’lim kursida pedagogik nazariya bilan bir qatorda, zamonaviy pedagogik munosabatlarini tartibga solish amaliyoti ham keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro shaxsiy me‘yorlar, ayniqsa, Angliya ta’lim tizimini amalga oshirish munosabatlari tartibga solinadi. Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar pedagogik holatlarni mustaqil tahlil qilish, g‘oyalarga tayangan holda shaxsiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)				

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Uzlüksiz ta'lim va hozirgi kundagi imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda inklyuziv ta'limning hozirgi kundagi holati

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (2020-yil 23 sentyabr) va undagi qo'yilgan maqsad va vazifalariga oid bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. Maxsus va inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi islohatlar ma'lumotlar haqida tushuncha berish

Davlatimiz tomonidan imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari hamda olib boriladigan ta'limiy, tarbiyaviy-korreksion ishlarga qo'yilgan davr talablari. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga bo'lgan e'tibor, imkoniyati cheklangan nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish hamda sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar haqida ma'lumot berish.

2-mavzu. Mamlakatimizda maxsus ta'limda olib borilayotgan islohatlar. Oligofrenopedagogikaning metodologik asoslari

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga bo'lgan e'tibor, imkoniyati cheklangan nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish hamda sifat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar haqida ma'lumot berish.

Milliy pedagogika, maxsus pedagogikaning falsafiy, diniy negizlari haqida hamda ularning bir-biri bilan bog'liqligi haqida tushuncha berish.

3-mavzu. Oligofrenopedagogika fan sifatida rivojlanishi, predmeti, maqsadi va vazifalari

Oligofrenopedagogika fanining tarmoqlanishi. Oligofrenopedagogika fanining rivojlanish tarixi. XVII asr oxirlari XIX asrlarning boshlaridan aqli zaif bolalarni davolash, tarbiyalash, o'qitishga oid ijobiy qarashlarning yuzaga kelishi Chet elda, Rossiyada, O'zbekistonda rivojlanish tarixi. Defyektologiya fanining rivojlanishida L.S.Vygotskiyning roli. Oligofrenopedagogika fan sifatida o'zni va fanni o'rganish metodlari. Oligofrenopedagogikaning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi. Oligofrenopedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

4-mavzu. Aqli zaif bolalar o'rganish va o'qitish, tarbiya va ta'lim manbai.

Aqli zaiflikning kelib chiqish sababalari, toifalari. Korreksion ta'lim-tarbiya berishda aqli zaif bolalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi. Aqli zaiflik belgilari. Aqli zaiflikning rivojlanish dinamikasi. Aqli zaiflikning kechki abilitatsiyasi va rehabilitatsiyasi.

5-mavzu. Maxsus ta'lim tizimi

Maxsus ta'lim tizimi. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash muassasalari. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasiga oid hamda Nuqsonli bolalarni maxsus muassasalarga saralash borasidagi davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy xujjatlar, nizom va qarorlar. Xalq ta'limi,

cog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot vazirligining hamkorligi va vazifalari. Ixtisoslashtirilgan maktabning maqsad va vazifalari va ularni amalga oshirish yo'llari." Korreksiya", "kompensatsiya", "Reabilitatsiya", tushunchalari va bularga oid olib boriladigan korreksion ishlarning o'ziga xosligi.

6-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim nazariyasi. Ta'lim-tarbiya rivojlantirish va korreksiyalash ishlari yagona korreksion jarayon sifatida

Yengil, o'rta, og'ir va o'ta og'ir darajadagi aqli zaif bolalarning bilish faoliyatining o'ziga xosligi. Maxsus korreksion ta'lim-tarbiya aqli zaif o'quvchilarning individual-psixologik rivojlanish sur'atini tezlashtirish xususiyati, atrof-muhit qonuniyatlarini bilish, ixtisoslashtirilgan maktabda o'qish motivlari, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash, moslashtirish, kasbga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya berish, yagona korreksion jarayon ekanligi. Ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim jarayoni haqida tushuncha. Ixtisoslashtirilgan maktabda o'qitish jarayoni dialektikasi. Ixtisoslashtirilgan maktabda o'qitish jarayonining mohiyati.

Ixtisoslashtirilgan maktabda korreksion ta'limning: rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, shakllantiruvchi ekanligi. Aqli zaif o'quvchilarni o'qitishda ta'limning korreksion-tarbiyalovchi, korreksion-rivojlantiruvchi xarakterga ega ekanligi.

7-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim tamoyillarini qo'llanish xususiyatlari

Ta'lim qonunlari maxsus korreksion ta'limning ajralmas qismi ekanligi. Ixtisoslashtirilgan maktabda oligofrenopedagog va aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos faoliyatini belgilovchi omil ekanligi. Sharq va g'arb olimlarining ta'lim tamoyillariga oid pedagogik qarashlari va fikrlari haqida. Tushunarlik tamoyili. Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili. Ta'limning ilmiy bo'lishi tamoyili. Ta'limni o'quvchilarga mos bo'lishi tamoyili. Ta'limning tizimliliigi va izchil bo'lishi tamoyili. Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi tamoyili. Ta'limda onglilik faollik va mustaqillik tamoyili. Ta'limda individual va differensial yondoshuv tamoyili. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi tamoyili.

8-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda o'qitish usullarining qo'llanish xususiyatlari va o'qitishni tashkil qilish

Ta'lim usullari (metodlari) haqida tushuncha. Ta'limda o'qitish metodlarini amalga oshirish yo'llari. Ba'zi ta'lim usullarining xususiyatlari. Ta'lim usullarining turli-tumanligi. Aqli zaif o'quvchilarda ta'lim usullarini qo'llashga qo'yilgan talablar. Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlarning mazmun va mohiyati. Ta'lim usullarining korreksion yo'naltirilganligi haqida tushuncha. Darslik bilan ishlash metodi. Dars. Darsga bo'lgan umumiy talablar. Dars shakli. Dars turlari. Amaliy va tajriba ishlari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi. Oligofrenopedagog shaxsiga qo'yilgan talablar.

9-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiya nazariyasi. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiya jarayoni va uning mazmun va mohiyati.

Ixtisoslashtirilgan maktabda imkoniyati cheklangan aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari. Aqli zaif bolalar shaxsini shakllantirishda tarbiyaning roli va o'rni. Aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashning o'ziga hos xususiyatlari haqida tushuncha berish.

10-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat ta'limi

Ixtisoslashtirilgan maktabda boshlang'ich sinflarida mehnat ta'limi, Yuqori sinflarda mehnat ta'limining mazmun va mohiyati. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini mehnatga to'g'ri munosabatni, mehnatsyevorlikni, mehnat ahliga ongli munosabatni shakllantirish haqida tushuncha berish.

11-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat tarbiyasi uning mazmuni va mohiyati.

Mehnat tarbiyasining barcha tarbiya turlari bilan chambarchas bog'liq yekanligi, mehnat quvonchi –bu turmush go'zalligi, mehnat qilish har bir kishining burchi ekanligi, aqli zaif o'quvchilarning qo'lidan keladigan mehnat faoliyati, ularning butun hayotiga singib ketgandagina mehnat tarbiya vositasiga aylanishi haqida, aqli zaif o'quvchilarning mehnat jarayonini o'zlashtirishdagi mehnat natijalariga erishishdagi muvaffaqiyatlarini ongli anglab etishi, ularning o'z mehnatiga qiziqishini barqaror suratda oshirib borish, mehnat qilish muhim ekanligi haqida tushuncha berish.

12-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiya tamoyillarini qo'llanishi.

Tarbiyani turmush bilan bog'lab olib borish tamoyili, aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy foydali faoliyat jaryonida tarbiyalash tamoyili. Aqli zaif o'quvchilarni jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tamoyili. Tarbiyada o'quvchi shaxsini hurmat qilish va talabchanlik tamoyili. Aqli zaif o'quvchilar hulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarini yo'qotish tamoyili. Aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashda ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyilini qo'llanish yo'llarini tushuntirish.

13-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiya metodlarining qo'llanishi

Tarbiya metodi aqli zaif o'quvchilarga korreksion tarbiyaviy ta'sir etish usullarining hamda ularning hayoti va faoliyatini uyushtirishning maxsus pedagogik vositalari majmui ekanligi haqida. Suhbat, munozara, o'rnak, namuna, pand-nasixat, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlarini qo'llanishining o'ziga hosligi haqida tushuncha berish

14-mavzu. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid pedagogik qarashlari.

Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid pedagogik qarashlarining hozirgi kunda ham o'z qiymatiga ega ekanligi. Oltin meros bo'lgan Qomusiy olimlarning bola tarbiyasiga oid asarlari haqida tushuncha berish. Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Qori-Niyoziy va boshqalarning bola tarbiyasiga oid pedagogik qarashlari imkoniyati cheklangan bolalar tarbiyasiga qo'llanishidagi muhim jihatlari haqida tushuncha berish

15-mavzu. Tarbiya turlari va uni amalga oshirishning o'ziga xosligi

Tarbiya turlari. Aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, jinsiy tarbiya va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha berish.

16-mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini kasb –xunarga tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini kasb –xunarga ishtiyoqini aniqlash. Kasbga haqida axborot berish, kasb haqida maslaxatlar berish. Aqli zaif o'quvchilarning kasbga layoqatini aniqlash. Kasbga yo'naltirish ishlari haqida tushuncha berish. Ularning potensial imkoniyatlaridan kelib chiqib kasb tanlashga yo'naltirish haqida tushuncha berish.

17-Mavzu. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida xulq-atvor madaniyatini shakllantirish. Bolalar jamoasini o'rganish va tashkil qilish, tarbiyalash

Maxsus maktabda “yagona talab” har xil sharoitlarda o'quvchilarning xatti -harakatini tartibga soluvchi intizom masalasi haqida tushuncha berish. Yagona talab o'quvchilarning darslardagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi jamoat joylarda, uydagi madaniy xulq-atvor qoidalarini, o'quvchilar qoidasini amalga oshirishdagi talablar haqida tushuncha berish.

Bolalar jamoasi o'quvchilarning birlashmasi ekanligi, o'quvchilarning jamoada o'zaro munosabati, o'zaro javobgarlikni his qilishi, vazifalarni bajarishda barcha a'zolarining tengligi bilan belgilanishi haqida. O'quvchilar jamoasi kattalar jamoasidan faoliyatining qiziqarliligi, o'yin elementlariga egaligi, rang barangligi bilan farqlanishi haqida. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar jamoa ta'sirida siyosiy, madaniy, ahloqiy jihatdan tarbiyalanishi to'g'risida, jamoa bir-biriga g'amho'rlik qilish, o'zaro yordam faqat o'zi haqida emas, balki boshqalarni ham o'ylashga intilish, jamoa manfaatini o'z qiziqishidan ustun qo'yish ko'nikmalarini hosil qilish haqida tushuncha berish.

18-Mavzu:Ixtisoslashtirilgan maktabda sinfdan tashqari ishlar

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan o'qish mashg'ulotlaridan farq qilishi. O'quvchilarni o'z qiziqishlariga va layoqatlariga qarab turli to'garaklarga o'z ixtiyorlari bilan jalb etish haqida. Sinfdan tashqari ishning turlari va shakllari xilma-xilligi. Sinfdan tashqari ishlarga hamma o'quvchilarni tortish talab yetilishi haqida tushuncha berish.

6-mavzu. . Nevrologiya asoslari

Ushbu modul sizga odamlarning asab tizimining asosiy tamoyillariga yaxshi asos beradi. Mavzular orasida neyroanatomiya, uyali nevrologiya, neyrofarmakologiya, sezgir tizimlar, neyroendokrinologiya, xotira, xulq-atvor nevrologiyasi va asab tizimi kasalliklari kiradi.

7-mavzu. Fizioterapiya BSc

Insonlar murakkab mavjudotlardir, ammo jarohat yoki kasallik tanani kerak bo'lgan tarzda ishlashiga to'sqinlik qilsa nima bo'ladi? Klinik joylashtirish, amaliy va simulyatsiya qilingan amaliyotni o'rganish orqali bizning yangi akkreditatsiyadan o'tgan

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Mamlakatimizda maxsus ta'limda olib borilayotgan islohatlar.
2. Oligofrenopedagogikaning metodologik asoslari
3. Aqli zaif o'quvchilarni o'rganish va ularga tavsifnoma tuzish
4. Inklyuziv ta'lim va uning maqsad va vazifalarini tahlil qilish
5. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quv dasturi va o'quv rejasi bilan tanishish va tahlil qilish
6. Ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim jarayonini kuzatish va tahlil qilish
7. Ixtisoslashtirilgan maktabda ilg'or pedagoglarning darslarini kuzatish va tahlil qilish, ta'lim tamoyillarini qo'llanishini kuzatish.
8. Ixtisoslashtirilgan maktabda ta'lim metodlarini qo'llanish xususiyatlarining o'ziga xosligini kuzatish tahlil qilish
9. Ixtisoslashtirilgan maktabda dars jarayonlarini kuzatish, tahlil qilish
10. 1-soatlik dars rejasini tuzish, darsga didaktik materiallar tayyorlash
11. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiyaviy ishlarni kuzatish tahlil qilish
12. Ixtisoslashtirilgan maktabda boshlang'ich sinf va yuqori sinflarda mehnat darslarini tahlil qilish.
13. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat darslarini kuzatish tahlil qilish
14. Ixtisoslashtirilgan maktabda tarbiyaviy tadbir o'tkazish dasturini tuzish
15. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid pedagogik qarashlari tahlili.
16. Aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashda milliy sharqona tarbiyaning roli
17. Ixtisoslashtirilgan maktabda korreksion tarbiyaviy ishlar mazmunini tahlil qilish
18. Ixtisoslashtirilgan maktabda ahloqiy tarbiya va uning korreksion roli
19. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning mazmuni
20. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida nafosat tarbiyasi va uning korreksion pedagogik ta'siri.
21. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat tarbiyasi
22. Ixtisoslashtirilgan maktabda huquqiy tarbiya va uning mazmuni
23. Ixtisoslashtirilgan maktabda sinf rahbarining faoliyatining mazmuni
24. Ixtisoslashtirilgan maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi mazmuni
25. Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining ota-onalari bilan olib boriladigan ishlar mazmuni

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi

turlarda amalga oshirilishi tavsiya yetiladi:

- yesse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publisistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
 - dokladlar tayyorlash;
 - kurs ishi yozish;
 - konspekt yozish;
 - glossariy tuzish;
 - individual va guruhli o'quv loyihasi;
 - keys-topshiriqlarini bajarish;
 - mavzuli portfoliolar tuzish;
 - axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
 - manbaalar bilan ishlash;
 - infografika tuzish;
 - chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;
 - multimediali taqdimotlar yaratish;
 - darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
 - darsdan tashqari mashg'ulotlar ishlanmalarini tayyorlash;
- ta'lim yo'nalishi(mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Ixtisoslashtirilgan maktabda mehnat ta'limi va aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish.
2. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asosari
3. Ixtisoslashtirilgan maktablarda axloqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
4. Ixtisoslashtirilgan maktablarda yestetik tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
5. Ixtisoslashtirilgan maktablarda yekologik tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
6. Ixtisoslashtirilgan maktablarda xuquqiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.
7. Ixtisoslashtirilgan maktablarda jismoniy tarbiyani amalga oshirish yo'llari
8. Ixtisoslashtirilgan maktablarda gigiyenik tarbiyani amalga oshirish yo'llari
9. Ixtisoslashtirilgan maktablarda sinf rahbarining ish faoliyati
10. Ixtisosla maktablarida bolalar jamoasini tashkil qilish yo'llari
11. Ixtisoslashtirilgan maktablarda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni.
12. Maxsus mehnat ta'limi maktablarida maktab, oila, mahalla, jamoatchilik hamkorligi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3.	V. Ta'lim natijalari /kasbiy kompetensiyalari Talaba bilishi kerak: maxsus pedagogika umumiy pedagogika fanining tarkibiy qismi ekanligi; maxsus pedagogikaning ijtimoiy ahamiyati; rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni rivojlantirish va korreksiyalash jarayonida maxsus ta'lim-tarbiyaning roli; rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalar tizimi; korreksion-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, taxlil etish va baholash, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar kamchiliklari haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • maxsus pedagogika fanining tarkibiy qismlari; maxsus pedagogikaning ilmiy-tekshirish metodlari; alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim berish tizimi; • maxsus maktablarda ta'lim berish metod va texnologiyalari; maxsus maktablarda ta'lim va tarbiya birligi, tarbiya berish metodlari; maxsus maktablarda ta'lim (didaktik) tamoyillari; maxsus maktablarda ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish; maxsus maktablarning boshqaruv tizimini bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) maxsus pedagogikada metod va texnologiyalarini qo'llash; maxsus maktabda ta'lim jarayonini tashkil etish; maxsus maktablar faoliyatini boshqarish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish. (malaka)
	VI .Kurs ishi mavzulari: 1. Yordamchi maktabda aqli zaif o'quvchilarni nutqini rivojlantirishning o'ziga xosligi. 2. Yordamchi maktab o'quvchilarida huquqbuzarlikni oldini olish. 3. Yordamchi maktabda tarbiya ishlarini olib borishda korreksion ishlarning olib borilishi 4. Yordamchi maktabda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish 5. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini mehnat tarbiyasining o'ziga xosligi. 6. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktabda ko'rgazmalilik tamoyilining amalga oshirilishi 7. Yordamchi maktabda ta'lim tamoyilining qo'llanilishi 8. Ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarning bilish qobiliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish 9. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning ahamiyati. 10. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab ta'lim muassasasida ta'lim va tarbiyani tashkil etish. 11. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab yoshdagi aqli zaif bolalarning ekologik tarbiyasi 12. Aqli zaif bolalarni tarbiyalashda maxsus muassasa va ota-onalarning hamkorligi. 13. Maxsus maktablarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish

14. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi
15. Yordamchi maktab o'quvchilarini jismoniy jihatdan tarbiyalashning o'ziga xosligi
16. Aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalashda oila va maktab xamkorligi
17. Aqli zaif o'quvchilarni ahloqiy jihatdan tarbiyalash
18. Aqli zaif bolalar bilan korreksion-pedagogik ish tizimidagi didaktik o'yinlarning roli .
19. Ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarning bilish qobiliyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish
20. Maxsus mehnat ta'limi maktablarida o'qitish tamoyillarining amalga oshirilishi.
21. Maxsus mehnat ta'limi maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
22. Maxsus mehnat ta'limi maktablarida insonparvarlikni tarbiyalashning o'ziga xosligi
23. Maxsus mehnat ta'lim-tarbiya nazariyasi.
24. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini oilaga tayyorlash.
25. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashning ahamiyati
26. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini mehnat tarbiyasining o'ziga xosligi.
27. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarini estetik tarbiyasini shakillantirish.
28. Maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarida ekologik tarbiya va uning ahamiyati.
29. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda huquqiy tarbiya va uning o'ziga xosligi.
30. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda jismoniy tarbiyasini o'ziga xosligi.
31. Maxsus mehnat ta'limi maktablar o'quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash yo'llari.
32. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda yangi pedagogik texnologiyani qo'llashning o'ziga xosligi.
33. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda sensor tarbiyani amalga oshirishning ahamiyati.
34. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda ko'rgazmalilik metodini qo'llanishining ahamiyati va o'ziga xosligi.
35. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda jinsiy tarbiyani amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.
36. Maxsus mehnat ta'limi maktablar o'quvchilarini kasbga yo'naltirish yo'llari.
37. Maxsus mehnat ta'limi maktablarda aqliy tarbiya.
38. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mehnat tarbiyasi xususiyatlari.
39. Aqli zaif bolalarda oliy asab faoliyatining xususiyatlari.
40. Aqli zaif bolalarda kompensatsiya jarayoni.
41. Aqli zaif bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi.

	42. Aqli zaif bolalarning nutq faoliyati. 43. Aqli zaif bolalarning faoliyat xususiyatlari. 44. Aqli zaif bolalarning shaxs xususiyatlari. 45. Aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari. 46. Aqli zaif bolalarning xarakter xususiyatlari. 47. Aqli zaif bolalarning o‘z-o‘zlariga baho berish xususiyatlari. 48. Aqli zaif bolalarning mehnat tarbiyasining psixologik asoslari. 49. Aqli zaif bolalarning kasbga moyilliklarining psixologik asoslari
4.	VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadi; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1.S.Umarova “Maxsus pedagogikaning klinik asoslari” T-2020 2. “Maktabgacha surdopedagogika” Jamoa T-2022 3. “Logoritmika” L.Xayitov, I.Xaydarov, M.Xoboboyeva Far-2023 4. M.Maxmudova “Logopediya” T-2021 5.X.Raximova “Koxlear implanti bolalar bilan logopedik ish” T-2021 Qo‘shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2017 yil 2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi Toshkent “O‘zbekiston” 2017 yil 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Toshkent “O‘zbekiston” 2016 yil 4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak 5. Mirziyoyev Sh.M. Yerkin va farovon O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo yetamiz 6.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 1. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar

strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida " gi PF - 6108 - son farmoni

Axborot manbaalari

1. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

2. <http://www.uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

3. <http://www.president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

4. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.

5. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti

6. <http://www.kun.uz> – O'zbekiston va jahon yangiliklari, eng so'nggi xabarlar sayti.

[Nevrologiya MSci Hons | Nottingham universiteti](#)

[Fizioterapiya BSc Hons | Nottingham universiteti](#)

7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 30-iyundagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas'ul va dastur muallifi: D.Yo'ldasheva– QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi X.Raximova – QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)
9.	Taqrizchilar: M. Maxmudova – QDPI “Maxsus pedagogika” kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD) M.Hamidova – TDPU “Oligofrenopedagogika” kafedrasida mudiri p.f.n. dots